

MAKTABGACHA TA‘LIMDA IKKINCHI TILNI O‘RGATISHNING KONSEPSIYA VA TAMOYILLARI

Impuls Tibbiyot Instituti
Ijtimoiy Gumanitar Fanlar Kafedrası Mudiri
Ergasheva Xilola Yunusxanovna

Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta‘lim tizimini yangi bosqichga ko‘tarish, tizimga zamonaviy yondashgan holda jahon talablari asosida rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunida maktabgacha ta‘lim va tarbiyaga – bolalarga ta‘lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma‘naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o‘rta ta‘limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta‘lim turi sifatida ta‘rif berilishi ushbu sohaga bo‘lgan e‘tibor davlat ahamiyati darajasida ekanligidan dalolat beradi.

Davlatimiz tomonidan ushbu tizim oldiga maktabgacha ta‘lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta‘lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta‘minlash, maktabgacha ta‘lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta‘lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta‘lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma‘naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish, ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo‘yildi.

Maktabgacha yoshdan boshlab bolalarni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularga xorijiy tillarni o‘rgatish, belgilangan vazifalarni amalga oshirish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

Hozirgi globalashuv jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarni kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda ikkinchi tilni o‘rgatish va tili o‘rganilayotgan mamlakatlar tarixi, madaniyati, urf-odatiga oid ma‘lumotlardan, shuningdek, jahon adabiyoti namoyondalarining durdonasi asarlaridan, turli didaktik va kommunikativ o‘yinlardan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Kommunikativ kompetensiya asosini quyidagilar tashkil qiladi:

- muloqotni tashkil qilish;
- shaxslararo muloqot ko‘nikmasi;
- muloqotni, kontakti saqlash, teskari aloqani o‘rnatish;
- muloqot natijalarini analiz qilish .

Psixologik va pedagogik adabiyotlarda kompetensiyaning turli ta‘riflari keltirilgan: Kommunikativ kompetensiya — bu ichki resurslar uchun zarur bo‘lgan tizim samarali kommunikativ qurilish shaxslararo o‘zaro munosabatlarning muayyan doirasidagi harakatlar.

Kommunikativ kompetensiya — bu shaxslararo tajribani shakllantirishning darajasi, ya‘ni ta‘lim bilan o‘zaro muloqot qilish shaxs talab qiladigan boshqalar, o‘z qobiliyatlari va ijtimoiy mavqei doirasida ushbu jamiyatda muvaffaqiyatli ishlash uchun.


Kommunikativ kompetensiya — bu muayyan narsalarni qo‘yish va hal qilish qobiliyati aloqa vazifalari turlari: maqsadlarni aniqlash, vaziyatni baholash, hisobga olish, hamkorning niyatlari va

aloqa usullari (hamkorlar), yetarli strategiyalarni tanlash, aloqa muvaffaqiyatini baholash, o‘z nutq xatti-harakatlarini o‘zgartirishga tayyor bo‘lish .

Nutq faoliyatining asosiy til materiali o‘z ichiga fonetik, grammatik, leksik materiallarni oladi. Til materiallarning xususiyatini, ularni faollashtiriladigan nutq faoliyatining turli xususiyatlari hisobga olinib, ular maxsus tamoyillar asosida tanlanadi. Har bir til materiallari o‘zining tanlash tamoyillariga ega.

Maktabgacha yoshdagi bola ikkinchi til materialini o‘rganayotganda mazkur tillarning xususiyatlari unga ta’sir qiladi. Bunga ahamiyat berilishi va hisobga olish zarur. Har bir til materiali o‘zini o‘rgatish xususiyatlariga, metod, yo‘l, usullariga, tanlash tamoyillariga, interferensiyasiga egadir.

Kommunikativ kompetensiyaga ega bo‘lish faoliyat yo‘nalishi uning tarkibiy qismlarini aniqlash imkoniyatini belgilaydi (I.I.I-rasmga qarang):



I.I.I-rasm. Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari

- motivatsion va qiymat komponenti;
- kognitiv komponent;
- hissiy komponent;
- xulq-atvor komponenti.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘quv jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalarda ikkinchi tilga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, balki ularni amaliyotda qo‘llay olishlari muhim sanaladi. Bu esa psixolingvistik nuqtai nazardan kommunikativ yondashuv asosida til ta’limshunosligini yanada rivojlantirish imkonini beradi.

Ba’zilar bola xorijiy tilni egallashdan oldin o‘z ona tilida nutqi rivojlangan bo‘lishi kerak, desalar, boshqalar ko‘p tilni egallagan bolalar ona tilidagi so‘zlarni ikkinchi o‘rgangan tildagi so‘zlaridan farqlay olmaydilar, deb ta’kidlashadi [28; 37-44-B].

Biroq, olimlarning aniqlashlaricha, maktabgacha, ya’ni 3 yoshdan chet tilini o‘rganishni boshlagan bolalar ijobiy natijalar ko‘rsatganlar va til o‘rganmagan tengdoshlariga qaraganda ikki tilda ham erkin muloqotga kirisha oladilar [18;21-B].

Shuningdek, ona tili va xorijiy tilni parallel ravishda o‘zlashtirgan bolalarda idrok etish, tahlil (analiz va sintez) qilish, tushunish, qiyoslash kabi ko‘nikma-malakalar hosil bo‘ladi.

Bundan tashqari, bu yoshda bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi kommunikativ savodxonligi va o‘z-o‘zini anglash qobiliyatlarini

rivojlantirishga dastlabki poydevor qo‘yiladi. Bola bu yoshda moddiy borliq go‘zalliklarini his etish, go‘zallik hamda nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o‘ziga singdirish, ardoqlash hamda riya qilish ko‘nikmalarini ham shakllantira boshlaydi.

Bu yoshdagi bolalar kattalarga taqlid qiladilar [41;I-B]. Sog‘lom bola 7-9 oyligidanoq ayrim tushunchalar mohiyatini anglay boshlaydi. I yoshga kirgan bola 100 ga yaqin so‘zni tushunadi va ayta oladi. 2 yoshga yetganda esa so‘zlar miqdori 300 ga yetadi. 3 yoshga to‘lganda so‘zlar miqdori 1200-1300 tani tashkil etadi. Endi u grammatik qoidalarsiz, o‘zi mustaqil ravishda so‘zlar, gaplar yasay boshlaydi, so‘zlarni mantiqan aloqaga kiritib fikrini bayon qiladi [42;I60-B]. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib, nutqni o‘zlashtirishi ma‘lum bir faoliyatga aylana boradi. Mazkur yoshdagi bolalar o‘z idroklarining aniqligi, ravonligi, o‘tkirliigi bilan boshqa yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o‘ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Psixologlar bola 3 yoshdan boshlab jismoniy va psixologik jihatdan faol rivojlanganligi sababli, bu yoshda til o‘rganish oson kechadi, degan g‘oyani ilgari suradilar [38;352-B].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ишмухамедов Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. Услубий тавсиялар. Тошкент – 2004
2. Қурбонов М.,Бегматова Д. Физика практикum ишларини миқдорий баҳолашнинг дидактик асослари. Т., Университет. 2008.
3. Ergasheva X.Yu. How to start teaching children second languages at home// Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. –Namangan, 2020. Махсус сон. – Б. 407-410. (13.00.00. № 30)
4. Dudley Evans, T and M. J. St John. 1998. Developments in English for Specific Purposes. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Hutchinson, T. and A. Waters. 1987. English for Specific Purposes: A learning-centered approach. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Prabhu, N. S. 1990 There is no best method. Why? TESOL Quarterly. Volume 24, No 2, pp 161-176
7. Ergasheva X.Y. Teaching second language to Very Young Learners // Pedagogical Sciences/colloquim-journal#I3(24) ISSN 2520-6990, December, 2018. – Pages 18-20.
8. Ergasheva X.Y. Communicative approach to second language teaching in preschool education // Horison: Journal of Humanity and Artificial Intelligence#I3(24) ISSN 2835-3064. 2023, – Pages 499-502. (Global Impact Factor 9.7)
9. Umarov A.A. Maktabgacha ta‘limda til o‘rgatish konsepsiya va tamoyillari // Pedagogika nazariyasi// “Xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar” mavzusida Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya, Namangan, ISSN 18-19-23./ 6 bet, 18 May 2023 yil.
10. Umarov A.A. Pedagogik nazariya va amaliyotda bo‘lajak o‘qituvchining axborot kompetentsiyasini rivojlantirish konsepsiyasi // Guliston Davlat Universitet Axborotnomasi// Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2023. № 2, UDC 378.147 / 254-258 betlar, 2023-yil 30-iyun.